



BO'LAJAK TEXNOLOGIYA O'QITUVCHILARIDA DIZAN KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Zaripova Sevara Erkin qizi

<https://orcid.org/0009-0001-6965-3531>

szaripova458@gmail.com

Tel: + 998974630360

Iminjonova Durdonaxon Kamolddin qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, Toshkent, 100149, O'zbekiston Respublikasi

szaripova458@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14945787>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida dizayn kompetensiyalarni shakllantirishning o'ziga xosligi, talabalarni texnologik faoliyatga tayyorlash, amaliy faoliyatning turli sohalarida ularda shaxsiy mehnat tajribasi va faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarbligi haqida aytilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya, dizayn, kompetensiya, mehnat, innovatsiya.

1 Kirish.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida dizayn kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat muayyan o'quv fanlari bo'yicha bilimlarni yuksak darajada o'zlashtirishni, balki amaliy va ijtimoiy faoliyatda faol ishtirok etishga tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Globalashuv sharoitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida dizayn kompetensiyalarni shakllantirishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, texnologiya fani mazmunini takomillashtirish muammosi talabalarni texnologik faoliyatga tayyorlash, amaliy faoliyatning turli sohalarida ularda shaxsiy mehnat tajribasi va faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarbligi bilan uzviy bog'liq. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida dizayn kompetensiyalarni shakllantirishning hozirgi holatini o'rganish natijalari shundan dalolat beradiki, texnologik ta'lim va o'quv jarayonini moddiy ishlab chiqarish ehtiyojiga yo'naltirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston ta'lim muhitida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida dizayn kompetensiyalarni shakllantirish tizimini rivojlantirish ularni amaliyotga yo'naltirib o'qitishning yagona tizimini shakllantirishni, shuningdek, faoliyatning turli sohalarida moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishni ko'zda tutadi. Shu bilan birga, ta'kitlash joizki, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar kontekstida ayni muammo nazariy va amaliy jihatdan hali o'z yechimini to'la topgani yo'q, chunki ta'lim tizimining turg'unligi sharoitda bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida dizayn kompetensiyalarni shakllantirish masalasiga yetarlicha e'tibor berilmadi. Holbuki, yangi kiritilgan texnologiya fani maktabda integrallashtiruvchi, tizim hosil qiluvchi pozitsiyani egallash imkoniga ega.

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida dizayn kompetensiyalarni shakllantirish muammosi hozirgi sharoitda ijtimoiy-iqtisodiy, psixofiziologik va psixologik-pedagogik yondashuvlar birligi asosida joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Pedagog olimlarning fikricha innovatsiya (yangilik) – bu faoliyatning turli sohalariga yangiliklarni tatbiq etish jarayoni. Hozirgi zamon ta'lim tizimida pedagogik jarayonlar ikki turdan tashkil topgan: innovatsion va an'anaviy pedagogik jarayonlar.

Ta'limdagi innovatsiya – bu maqsadga yo'naltirilgan yangilik bo'lib, uning maqsadi ta'limda barqaror va ancha samarali natijaga erishishdir.

2 Materiallarni olish texnologiyasi va tadqiqot usuli

Innovatsion yondashuv ta'lim mazmunini ishlab chiqarish jarayonidagi yangi texnika va texnologiya elementlari bilan boyitish, ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan amalda foydalanishni bildiradi.

Pedagog olim L.R.Zaripovning ta'kidlashicha **pedagogik innovatsiya** – bu nazariy jihatdan asoslangan, maqsadga va amaliyotga yo'naltirilgan mazmun, metod, shakl va vositalar majmuasi. U makrodaraja, mezodaraja va mikrodarajalarda amalga oshiriladi. Makrodarajadagi innovatsiya butun ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga daxldor va bu uning paradigmalari o'zgarishlariga olib keladi, mezodarajadagi innovatsiya ta'lim muhitidagi o'zgarishlarga yo'naltiriladi, mikrodarajadagi innovatsiyada o'quv fani, yoki fanlar bloki



(masalan, texnologiya o'quv fanining yangi mazmunini ishlab chiqish; yoki ta'lim jarayonini tuzilmalashtirishning yangi usullarini, yangi texnologiyalarni, o'qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqishga) e'tibor qaratiladi.

Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida dizayn kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni deganda quyidagilarni nazarda tutildi:

pedagogik tizimning barcha komponentlari (maqsadlar, vazifalar, mazmunlar, shakllar, metodlar, mezonlar, ko'rsatkichlar, yo'nalishlar va belgilangan natijaga erishning shart-sharoitlari)ning o'zaro bog'liqligi;

umumiy ta'limning butun tizimi asosini tashkil etuvchi fundamental bilimlar asosida talabalarda dizayn kompetensiyalarni shakllantirish;

mehnatning ijtimoiy bo'limlari tuzilishi bilan mos holda o'quv amaliy faoliyatning barcha turlari va shakllariga talabalarni jalb etish;

o'quv vositalari, sinfdan tashqari o'quv faoliyati, qo'shimcha (to'garaklar) va mustaqil ta'limning o'zaro bog'liqligi;

texnologik ta'limning barcha bosqichlarida bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida dizayn kompetensiyalarni shakllantirishning o'zaro bog'liqligi va uzluksizligi;

talabalarining ko'p bosqichli, ko'p darajali, ijodiy kompetensiyalarini pedagogik ta'minlash.

O'qitish mazmuniga quyilgan quyidagi talablar aniqlandi: ilmiy-texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini aks ettirish zarurligi (ilg'or texnologik jarayonlar, axbrot-kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat mahsulotlarining yangi turlarini o'zlashtirish); yangi texnologik jarayonlar va yangi texnikalarni o'rganishdagi izchillik, materiallarni an'anaviy qayta ishlash usullarini zamonaviylari bilan qiyoslash, umumiylik va alohidalikni aniqlash, qiyoslash, tahlil qilish; oliy ta'lim predmetlari va texnologik ta'lim mazmunining o'zaro bog'liqligi.

3 Eksperimental natijalar va ularning muhokamasi

Innovatsion yondashuv ta'lim mazmunini ishlab chiqarish jarayonidagi yangi texnika va texnologiya elementlari bilan boyitish, ta'lim jarayoniga innovatsion ta'lim va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan amalda foydalanishni bildiradi. Biroq bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida dizayn kompetensiyalarni shakllantirish tizimli ravishda tashkil etilmasa, shaxsning aqliy va har tomonlama rivojlanishida samarali natijaga erishib bo'lmaydi.

Texnologiya darslarida o'qitishning faol, innovatsion metodlarini qo'llash o'quvchilarda o'z imkoniyatlarini namoyon etishga imkon beruvchi muhim tayanch kompetensiyalarni shakllanishirishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda talabalarining o'quv va ijodiy faolligini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi o'qitishning interfaol texnologiyalarini qo'llash borasida katta tajribalar to'plangan. Ushbu pedagogik tajribalar asosini tashkil etuvchi metodlar **o'qitishning faol metodlari** deb ataladi.

Umuman, texnologiya ta'limida o'qitishning ilg'or metod va usullariga katta e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. O'quv jarayonini shunday tashkil etish kerakki, bunda hech qanday psixologik noqulaylik bo'lmasligi, o'quvchilar o'z imkoniyatlariga to'la ishonishlari zarur. Ta'lim jarayonida har bir talabaning o'ziga hosligini (individulligini) hisobga olish, bajarilgan ish uchun kamdan kam hollarda juda past baho qo'yish va bunda uni to'g'rilash, ya'ni yaxshi bahoga o'zgartirish imkonini berish lozim.

Texnologik ta'lim jarayonida o'qitishning faol metodlarini qo'llashda o'qituvchiga quyidagi qoidalarga rioya qilish tavsiya etiladi:

fanning o'quv dasturini o'rganish va tahlil qilish;

o'quv materialini nazariy, amaliy va mustaqil ish mashg'ulotlari uchun ajratish;

har bir mavzu bo'yicha o'quv maqsadlarini aniq belgilash;

o'qitish jarayonini loyihash;

har bir mashg'ulot uchun dars ishlanmalarini tayyorlash;

o'qitishning faol metodlari va texnologiyalarini tanlash;

ta'lim texnologiyasi va shakllarini tanlashda o'quvchilarning yoshi va psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish;



topshiriqlar to'plamini ishlab chiqish;
o'qitish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish;
o'qitishda zamonaviy didaktik vositalardan foydalanish;
har bir mavzu bo'yicha baholash vositalari va mezonlarini ishlab chiqish;
ta'lim natijalarini tahlil qilish va yo'l qo'yilgan xatolarni bartaraf etish.

4 Xulosa

Albatta, qisqa vaqtda muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan zamonaviy yondashuvni, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashni talab etadi.

Yangi pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra sub'ektiv xususiyatga ega, ya'ni har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar texnologik ta'lim quyidagilarga imkon berishi kerak:

- amaliy faoliyat (ta'lim-tarbiya jarayoni) samaradorligini oshirish;
- o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish;
- talabalarning texnologik bilimlarni puxta egallashini ta'minlash;
- talabalarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish;
- talabalarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- ta'lim jarayonida demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustuvorligiga erishish.

O'qitishning faol metodlaridan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali o'qituvchilar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish va ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiq. Bu esa ta'limda samarali natijalarga erishishga olib keladi. Eng muhimi maktab o'quvchilarida texnologik kompetensiyalarni shakllantirish mazmunini takomillashtirish borasida muntazam va tizimli ishlar olib borilishi lozim.

ADABIYOTLAR:

1. Sh.S.Sharipov O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Diss. ...ped. fan. dok. – T., 2012.
2. С.Д.Базарова Олий таълимда касбий–йўналтирилган ўқитиш технологиялари. Монография. – Тошкент: «Фан ва технология» нашриёти, 2006. – 114 б.
3. М.В.Кларин Инновации в мировой педагогике обучение на основе исследований, игр, дискуссий. –Рига: НПП«Эксперимент», 1995. –176 с.
4. L.R.Zaripov Kredit-modul tizimi asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc). Diss. -T.:2023 y.-252 b.
5. L.R.Zaripov. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologik tayyorgarlik talqini. Pedagogika jurnali.2018y. № 4.